

## JAVLON JOVLIYEV HIKOYALARIDA AYOL OBRAZI

**Islomov Shohijahon Shuhratjon o'g'li**

E-mail: [shoxjaxonislomov@gmail.com](mailto:shoxjaxonislomov@gmail.com)

**Boboqulov Oybek Abdiquodirovich**

E-mail: [www.bobokulovoybek999@gmail.com](mailto:www.bobokulovoybek999@gmail.com)

### ANNOTATSIYA

Bu maqolada istiqlol yozuvchisi Javlon Jovliyevning tarixiy faktlarga asoslangan hikoyalarida ayol obrazining o'ziga xos jihatlari yoritilib, boshqa adiblar asaridagi obrazlarga taqqoslagan holda adib mahorati haqida asosli xulosalar berildi.

**Kalit so'zlar:** obraz, zamonayiv adabiyot, tasvirlash, qiyoslash.

San'atning obraz vositasida fikrlashi uning spetsifik, ya'ni, tur sifatida belgilovchi xususiyatidir. San'atkor badiiy obraz vositasida dunyoni angelaydi, o'zi anglagan mohiyatni va o'zining anglanayotgan narsaga hissiy munosabatini ifodalaydi. Shu ma'noda obraz adabiyot va san'atning fikrlash shakli, usuli sanaladi; obrazlar vositasida fikrlagani uchun ham adabiyot va san'atga xos fikrlash tarzi "*obrazli tafakkur*" deb yuritiladi. Obrazli tafakkur bilan tushunchalar vositasidagi tafakkur tarzining farqi nimada? Bunday farqni yorqinroq tasavvur etish uchun fan va badiiy adabiyotni qiyoslab ko'rish mumkin. Misol uchun, bir xil masala yuzasidan fikr yuritayotgan olim va shoirni olib ko'raylik. A. Oripovning "*Ayol*" she'ri hammangizga tanish, unda ikkinchi jahon urushida eridan yosh beva qolgan, umrini farzandiga bag'ishlagani holda sadoqat bilan yashagan ayol haqida so'z boradi. Shoir ko'z oldimizda konkret ayolni, uning foje taqdirini gavalantirish orqali umuman urush haqida, uning oqibatlari haqida, og'ir damlarda sinaluvchi insoniy hislar haqida mushohada yuritadi. Xo'p, xuddi shu she'rdagi masala xususida, masalan, tarixchi olim qanday fikr yuritadi: "Ikkinchi jahon urushi janggohlariga..., yosh yigitlar ham to'la safarbar etildi. Urush harakatlarida sho'ro hukumati insonni tejash yo'lidan bormadi, janggohlarda ko'plab jangchilar halok bo'ldi. Buning natijasida urushdan so'ng jamiyatda erkak va ayollar nisbatida nomutanosiblik yuzaga keldi, demografik vaziyat tanglashdi. Ko'plab ayollar yolg'iz umrguzaronlik qilishga mahkum bo'ldi. Jamiyatda "yolg'iz ayol" toifasi yuzaga keldi". Ko'rib turganimizdek, olim shoirdan tamomila farqli yo'ldan boradi, uni umumlashtirilgan faktlarga qiziqtiradi. Olim konkret inson taqdiri haqida emas, undan o'zini chetlashtirgan (abstraktlashgan) holda umumlashmalar, tushunchalar asosida fikr yuritadi. Ma'lum bo'ldiki, mohiyat e'tibori

bilan shoir va olimni o'ylantirayotgan muammo bitta. Biroq, shoir bitta konkret ayol taqdirini badiiy tasvirlash (obrazini yaratish) orqali umumlashmaga boradi, baski, obraz uning uchun fikrlash shakli, usuli bo'lib qoladi. Ya'ni, olim ko'plab faktlarni (konkret hodisalar, insonlar v.h.) o'rganib, ularning umumiy xususiyatlari asosida ilmiy xulosalar, umumlashmalar chiqarsa, san'atkor konkret faktni individual tasvirlash orqali umumlashmaga intiladi.<sup>1</sup>

Adabiyotshunosligda badiiy asar tahliliga doir muammolarni psixoanalitik jihatdan o'rganish va uni anglash zarurati gumanitar sohalarda jiddiy masalalarni kun tartibiga qo'yimoqda. Ayniqsa, filologiya sohasida g'oyaviy pishiq, mazmunan mukammal, sifat jihatidan o'ta yangi ilmiy izlanishlar olib borish uchun imkoniyatlar yaratilmoqda. Ayol psixologiyasini tahliliy o'rganish insonning ma'naviy olami, dunyoqarashi, tafakkur tarziga xos qonuniyatlarni kashf etishda muhim. Adabiy jarayon doim ijtimoiy muhit, adabiy-ma'naviy, madaniy hayot bilan chambarchas bog'liq holda shakllanadi. Zero, bashariyatning ongu tafakkuri, ruhiyatidagi yangilanishlar, asosan, adabiyot va san'atda o'z aksini topadi. Bunda adabiyotshunoslik fani ham o'z obyektiga yangi nigoh bilan qarash, ayol ruhiyatiga oid muammolarni chuqurroq anglash yo'lidan bordi. Badiiy adabiyotda ayolning ruhiy dramalarini to'laqonli aks ettirishda jahon nasrining ilg'or ijodiy tendensiyalariga xos jihatlar namoyon bo'lmoqda. Adabiy jarayonda ayolning ijtimoiy hayotda tutgan o'rni, uning sohir tuyg'ulari, murakkab ruhiy olamini tasvirlashda falsafiy-psixologik, ramziy majoziy obrazlilik ustunlik qilmoqda. Bunda eng muhim vazifa muayyan xilqat ruhiyati, tasvir va ifodaning yangicha talqini bilan bog'liq.<sup>2</sup>

O'zbek adabiyotida ayollar obraziga murojaat qilish, ularning turfa qiyofalarini yaratish XX asrning dastlabki yillarida yaratilgan nasriy asarlarimizda ko'rina boshladi. Kumushbibi, Zaynab ("O'tkan kunlar"), Zebi ("Kecha va kunduz"), Unsin ("Daxshat"), Gulnor ("Qutlug' qon"), Saida ("Sinchalak") va boshqa asarlarni keltirishimiz mumkin. Garchand, bu asarlarning barchasida ayollar obrazi yetakchi qahramon darajasiga chiqmagan bo'lsa-da, asardan ko'zlangan maqsadni u yoki bu darajada ochish uchun xizmat qilgan. Zamonaviy o'zbek adabiyotida Xurshid Do'stmuhammad, Erkin A'zam, Nazar Eshonqul, Isajon Sulton, Ulug'bek Hamdam, Qo'chqor Norqobil, Luqmon Bo'rixon, Zulfiya Qurolboy qizi kabi adiblarimiz ijodida erkaklar bilan teng ijtimoiy hayotimizda faoliyat yuritayotgan, yoki shu hayotning qaysi bir jihatida o'z o'rniga ega ayollar obrazlari muhim o'rin egallaydi.<sup>3</sup>

Bugungi kun ijodkori adabiyotga yangicha ruh, betakror mazmun, o'ziga xos izlanishlar bilan kirib kelishi bevosita ularning mavjud adabiy-estetik an'analarga

<sup>1</sup> Dilmurod Quronov. Adabiyotshunoslikka kirish. Toshkent. 2004

<sup>2</sup> Y.Eshmatova. Istiqloq davri o'zbek qissachiligida ayol ruhiyatining badiiy talqini. PhD., Dissertatsiya. B-4

<sup>3</sup> G.Sattorova. "90-yillar o'zbek hikoyachiligi milliy xarakter muammosi". T-2002.

mumtoz va G'arb ohanglarini qorishtira olganligi bilan xarakterlanadi. Milliy adabiyotimizda yangicha uslub va obrazli ifodalarning paydo bo'lishi, individual ijodiy kashfiyotlarning ortishi zamonaviy adabiyotning qamrovini kengaytirish barobarida, uni izchil o'rganish, tahlil va tadqiq qilish masalasida muayyan ilmiy ishlar olib borishga ehtiyoj tug'dirmoqda. Shunday ekan, "Adabiyot xalqning yuragi, elning ma'naviyatini ko'rsatadi. Bugungi murakkab zamonda odamlar qalbiga yo'l topish, ularni ezgu maqsadlarga ilhomlantirishda adabiyotning ta'sirchan kuchidan foydalanish kerak", degan fikr o'zbek adabiyoti oldiga maqsadli ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish majburiyatini yuklaydi. Badiiy ijoddagi mavjud roman va ijodkor uslubi haqidagi ilmiy-nazariy qarashlardan kelib chiqqan holda ushbu adabiy jarayonga munosabat bildirish, umumiy xulosalar chiqarish Iqbol Mirzo, Jamila Ergasheva, Tilavoldi Jurayevlarning o'ziga xos badiiy olamini kashf etish, romanchilikda ayol qalbi manzaralarining ruhiypsixologik omillarini aniqlash maqolaning dolzarbligi va zaruratini belgilaydi. Har qanday mamlakatning iqtisodiy qudrati og'ir sanoatining qanchalik rivojlanganiga qarab belgilanganidek, har qanday milliy adabiyotning insoniyat estetik tafakkuriga qo'shgan hissasi ham undagi romanchilikning salmog'i bilan tayin etiladi. Chunki roman millat badiiy tafakkurining taraqqiyot darajasini namoyon etadi. Romanning bugunini tushunish va istiqbolini bashorat qilish uchun bu janrning nima uchun, qachon va qayerda paydo bo'lganini aniqlash hamda unga xos yetakchi belgilarni tayin etish lozim bo'ladi. Ilk romanlar milodning XII-XIII asrlarida roman tillarida so'zlashuvchi xalqlar orasida yuzaga kelgan. "Roman tillari" tushunchasi "Rim (Roma)ga tegishli" degan ma'noni anglatib, lotin tili asosida shakllangan ispan, italyan, moldova, portugal, rumin, flamand, fransuz va boshqa tillarni o'z tarkibiga oladi. Ilk romanlar paydo bo'lgan davrda Ovro'podagi deyarli barcha davlatlar uchun lotin tili rasmiy va badiiy til sanalardi. Aholining asosiy qismi esa lotin tilini bilmas, binobarin, adabiyotdan bebahra edi. Ana shunday sharoitda, aholining ruhoniylar va aslzodalardan keyingi uchinchi va son jihatidan eng katta qatlami bo'lmish ish odamlari, kosib-hunarmandlarga tushunarli bo'lgan tildagi, ularning didiga muvofiq keladigan asarlarga ehtiyoj paydo bo'ldi. Roman ana shu ehtiyoj natijasi o'laroq yuzaga keldi. Ilk paydo bo'lgan chog'ida roman tillarining birida yaratilgan asar roman sanalib, "roman tilidagi qissa yoki hikoya" ma'nosida "conte roman" deyilgan. Romanning aynan o'sha vaqt, o'sha joy va shu shaklda paydo bo'lishiga sabab nima? Ma'lumki, antik davrdan qolgan an'anaga ko'ra barcha badiiy asarlar "yuksak poeziya" shaklida bo'lib, ularga ma'budlar, koinlar, saltanat egalari, kam deganda, aslzodalar qahramon qilib olinardi. Uchinchi qatlam, ya'ni, mehnat kishilari uchun bu asarlarning tili tushunarsizligidan tashqari, qahramonlari ham mutlaqo begona edi. Holbuki, bu

davrga kelib uchinchi qatlam ham son jihatidan, ham iqtisodiy mavqeiga ko‘ra katta kuchga ega edi. Agar insoniyat tarixining shu davriga qadar badiiy asarlar ne‘matlarga egalik qiluvchi va taqsimlovchilarning didlariga muvofiq yaratilgan bo‘lsa, XII asrdan e‘tiboran ishlab chiqaruvchilarning didlariga mos asarlar ham yaratiladigan bo‘ldi. Mehnat bilan kun ko‘radigan oddiy odamlarning estetik ehtiyoji natijasi o‘laroq paydo bo‘lgan romanlarda aks ettirilgan voqealar, ularda tasvirlangan obrazlar va bu asarlarning ifoda yo‘sini ham o‘qirmanlarning intellektual darajasiga muvofiq bo‘lishi tabiiy edi.

Shuning uchun ham Gegel romanni nimkinoya bilan “*burjuaziyaning epopeyasi*” deb ataydi. Roman uchinchi qatlamga mansub kishilar didiga muvofiq dunyoga kelgan va oldin shakllangan “*yuksak poeziya*” namunalaridan keskin farq qiladigan janr bo‘lgani uchun juda uzoq vaqt davomida adabiyot nazariyotchilarining e‘tiboridan chetda qolib keldi. Deyarli yetti yuz yil mobaynida romanga xos belgilar ilmiy jihatdan tadqiq qilinmadi. Bu boradagi ilk nazariy qarashlar romanchilarning o‘zlari tomonidan bildirildi. Faqat XIX asrga kelib, Gegel roman nazariyasiga qo‘l urdi. Aynan nazariy qolipning yo‘qligi romanning xilma-xil sinkretik va qirg‘oqsiz janr bo‘lishiga olib keldi. Nazariy cheklovlarning kamligi sababli roman yetakchi adabiy janrga aylandi. Roman tarixiga qilingan qisqa ekskursiya uning janr sifatidagi belgilarini to‘g‘ri aniqlash imkonini beradi. Ibtidoda insonning individual xususiyatlari, ruhiyat jilvalari tasviriga e‘tibor qaratilgani bois, Belinskiy romanni “*individning eposi*” deb atagan. Ko‘rinadiki, roman alohida shaxslarning ichki dunyosini badiiy idrok etish va izohlash yo‘sini sifatida yuzaga kelgan.<sup>1</sup>

Mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab barcha sohalar kabi o‘zbek adabiyoti taraqqiyotida ham sezilarli darajada tub o‘zgarishlar yuz berdi. Bu, ayniqsa, nasrda yaqqol namoyon bo‘ldi. Shakl va mazmunning o‘ziga xosligi, ijodkor uslubining yangicha talqini paydo bo‘ldiki, bunda, abatta, jahon adabiyotiga xos ilg‘or ijodiy an‘analarning ham ta‘siri bor. Nasrga xos bunday yangilanishlarning aksariyati tezkor va ixcham hikoya janrida o‘z aksini topdi. Aslida, nasrning qaysi janri bo‘lmasin, undagi asosiy obraz - inson obrazidir. “Adabiy asar chinakam asar namunasi bo‘lishi uchun, realizmga mansub bo‘ladimi, romantizm uslubida yozilgan bo‘ladimi, yoki qandaydir boshqa modernistik uslubga amal qiladimi, baribir uning markazida inson turmog‘i kerak, kitobxon insonning taqdiri, tabiati, hayoti haqida muayyan axborot olish bilan birga bu asardan estetik zavq ham ola bilsin”. Shu bois ham, zamonaviy adabiyotda insonni har tomonlama o‘rganish va kashf etish doimiy dolzarbligini yo‘qotmaydi. Adabiyot faqat uslubiy, shakliy va talqinlarni emas,

<sup>1</sup> International Conference on Research in Humanities, Applied Sciences and Education Hosted from Berlin, Germany <https://conferencea.org> June 30th 2022

balki, badiiy asarlarda yaratilayotgan qahramon obrazlarining xilma-xilligi bilan ham boy va go‘zaldir. Hayot uchun kurashuvchan, ezgulikka intiladigan, sabrqanoat va aql-idrokka ega obrazlarni tasvirlash badiiy adabiyotning tarbiyaviy-estetik vazifasi hisoblanadi.<sup>1</sup>

Adib “Ayol” hikoyasida qishloqda yo‘qchilikda qiynalgan ayol obrazi yoritib bergan bo‘lsa, “Ikki qalb uchrashuvi” nomli hikoyada esa asli qishloqlik lekin zamonaga ham nafas o‘z yurtidagi qiyinchilik va yo‘qchiliklarga ilmsizlikni ayblaydigan ilmi qizni tasvirlagan. “Men o‘zbek qiziman. Zamonaviy qizman. Lekin uyatsiz emasman.... Men sizday odamlar bilan shaharda yashashdan, dunyo bo‘ylab sayohat qilishdan ko‘ra, qishloqning oddiy maktablarida sovuqotib bo‘lsa-da xayrat-la ustoziga termilib turgan beg‘ubor, pokiza bolakaylarga bilim berishni afzal ko‘raman. Shunga o‘zimni kerakli his qilaman, shunda olayotgan nafasimga achinmayman”. Qishloqdan chiqqan ilmi va o‘zining qishlog‘idagi bolalar uchun borini berishga tayyor turgan talaba qiz haqida shunday gap yuritilgan. Xurshid Do‘stmuhammadning “Mahzuna” nomli hikoyasidagi Mahzuna obrazi yozuvchi tomonidan nihoyatda sinchkovlik bilan tasvirlanadi. O‘zbek ayollariga xos bo‘lgan ibo-hayo, yuksak tarbiya unda mujassamlashgan. Erining ra’yini qaytarolmay ziyofatga borishga rozi bo‘lganida, uning beozorligi va bironing ko‘ngliga hech ham ozor berishni o‘ylamaydigan inson ekanligini ko‘rishimiz mumkin. Ziyofat paytida o‘zga erkakning unga termulishi ko‘nglini g‘ashlaydi, uyiga kelganidan keyin ham o‘zidan jirkanadi. Mana shu o‘rinlarda uning ibo-hayosi namoyon bo‘lgan. Ziyofat ishtirokchilari orasida o‘zini tamomila begona sezadi. Bemalol qadah ko‘tarayotgan, erkaklar bilan tengma-teng askiya aytayotgan ayollarni ko‘rib hayo olovida lov-lov yonadi. Bunday davralarda o‘tiraverib, eti o‘lib ketgan “Maqsadjon akasi ikki-uch, “Oling, yeb o‘tiring” deb uni dasturxonga undadi. Mahzuna battar tortinib-qimtinib “sekinroq gapiring” degandek eriga yer ostidan xumraydi”, deb tasvirleydi muallif bu holatni. Mahzuna bu davraga begona bo‘lishi bilan birga, so‘layotgan gullar orasida yangi ochilgan gulday yashnab turar, o‘zining yoshligi, go‘zalligi, tortinchoqligi bilan hammaning ehtiborini tortar edi. Ushbu holat erkak va ayollar teng huquqda bo‘lgan bunday davralarda ishtirok etib yuruvchi yevropacha tarbiya ko‘rgan ayollar uchun normal holat bo‘lib tuyulishi mumkin edi. Hatto, yevropacha axloqqa ko‘ra bu holat ayolning g‘alabasi, boshqalardan ko‘ra ustunligi sifatida baholanadi. Yozuvchi “Mahzuna” hikoyasi orqali go‘zal fazilatlarining ayollarda mujassam bo‘lishi kerakligini asardagi chizgilarda ifodalagan. “Mahzuna tushunmadi, qiynalib ketdi, xo‘rliги kelib yig‘lab yuboray dedi”,- deb tasvirlanadi uning holati. Eng yomoni ochiq-oydin pok nomusini toptashga intilayotgan mansabdor - Bo‘ri Sobitovichning

<sup>1</sup> <https://doi.org/10.5281/zenodo.7337394>



harakatlariga davrada o'tirgan yosh-u qari, hatto turmush o'rtog'i tomonidan xayrixohlik bildiriladi. Bu davra barcha axloq normalarini, milliy or-nomusni birgina manfaat deb atalmish jozibali narsaga almashib o'rgangan, Mahzunani ham o'zining jirkanch maqsadi yo'lida qurbon qilishdan toymas edi. Ziyofat so'nggida Bo'ri Sobitovich yevropalik janoblardak barcha ayollarning qo'lini o'pib xayrlashadi. Ayollar bundan hatto faxrlanishar, o'xshovsiz hiringlashar, bu esa Mahzunani battar dahshatga solar edi. Ushbu hikoyada Mahzuna go'yoki maxluqlar orasidagi mahzun gul sifatida aks ettiriladi.<sup>1</sup>

Xulosa qilib shuni ayta olamizki, mustaqillik yillarida yaratilgan aksariyat hikoya, va romanlarda ayollarning rus-tuzem davrlarida boshdan kechirgan qiyinchiliklari yoritilgan. Istiqlol yozuvchisi Javlon Jovliyev ham ayol obrazi yaratishda kichik detallarni birlashtirib umumlashma obraz yarata olgan.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)

1. Dilmurod Quronov. Adabiyotshunoslikka kirish. Toshkent.: 2004
2. Y.Eshmatova. Istiqlol davri o'zbek qissachiligida ayol ruhiyatining badiiy talqini. PhD., Dissertatsiya. B– 4
3. G.Sattorova. “90-yillar o'zbek hikoyachiligi milliy xarakter muammosi”. T-2002.
4. Ubaydullayeva Jamila, Ko'charova Dildora Erkin A'zamning poetik mahorati. Ilmiy risola. Termiz – 2022. – 72b.
5. International Conference on Research in Humanities, Applied Sciences and Education Hosted from Berlin, Germany June 30th 2022

#### INTERNET SAYTLARI:

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7337394>

<https://conferencea.org>

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6857692>

[www.ziyo.uz](http://www.ziyo.uz)

[www.ziyouz.com](http://www.ziyouz.com)

[www.wikipidiya.org](http://www.wikipidiya.org)

[www.taqvim.uz](http://www.taqvim.uz)

[www.m-eng.ru](http://www.m-eng.ru)

---

<sup>1</sup> <https://doi.org/10.5281/zenodo.6857692>